

KONFERENSIYALAR UZ

ANJUMANLAR PLATFORMASI

**I RESPUBLIKA ILMIY-
AMALIY KONFERENSIYASI**

**YANGI DAVR ILM-
FANI: INSON UCHUN
INNOVATSION G'OYA
VA YECHIMLAR**

MAY, 2025

ELEKTRON NASHR:

<https://konferensiyalar.uz>

<https://sp-press.uz>



YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR

**I RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYASI MATERIALLARI**

2025-yil, 7-may

TOSHKENT-2025

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
I Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Toshkent:
Scienceproblems team, 2025. – 137 bet.

DOI: <https://doi.org/10.47390/spro/i-res-konf-2025>

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.uz> | <https://sp-press.uz>

Konferensiya tashkilotchisi: “Scienceproblems Team” MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 7-may, 2025-yil

Mas'ul muharrir:

Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya

Mazkur to'plamda “Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar” mavzusidagi I Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Nashrda respublikaning turli oliy ta'lim muassasalari, ilmiy markazlari va amaliyotchi mutaxassislari tomonidan tayyorlangan maqolalar o'rin olgan bo'lib, ular ijtimoiy-gumanitar, tabiiy, texnik va yuridik fanlarning dolzarb muammolari va ularning innovatsion yechimlariga bag'ishlangan. Ushbu nashr ilmiy izlanuvchilar, oliy ta'lim o'qituvchilari, doktorantlar va soha mutaxassislari uchun foydali qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsion yondashuv, zamonaviy fan, fanlararo integratsiya, ilmiy-tadqiqot, nazariya va amaliyot, ilmiy hamkorlik.

Barcha huquqlar himoyalangan.

© “Sciences problems team” MChJ, 2025-yil

© Mualliflar jamoasi, 2025-yil

MUNDARIJA

BIOLOGIYA FANLARI

<i>Боймуродов Хусниддин, Пардаев Юнус, Хафизова Малика</i> APORRECTODEA ROSEA (SAVIGNY, 1826) ЁМҒИР ЧУВАЛЧАНГИНИНГ ТАРҚАЛИШИ ВА ЭКОЛОГИЯСИ.....	6-9
---	-----

-TEKNIKA FANLARI

<i>Инагамов Бобур</i> СИФАТ МЕНЕЖМЕНТИ ВА СЕРТИФИКАТЛАШТИРИШ СОҲАЛАРИДА АМАЛИЙ ТАЖРИБАГА АСОСЛАНГАН ТАЪЛИМНИ ШАКЛЛАНТИРИШ: ДУАЛ ТАЪЛИМ МОДЕЛИ: КОРХОНА ВА ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИ ЎРТАСИДАГИ ҲАМКОРЛИК.....	10-13
--	-------

TARIX FANLARI

<i>Umarov Sardor</i> GERMANIYANING ILMIY-MADANIY TARAQQIYOTIDA O'ZBEKISTON VA GERMANIYA XALQ DIPLOMATIYASI DOIRASIDAGI HAMKORLIGINING O'RNI	14-21
<i>Suyarov Maxmudjon</i> ELLINIZM DAVRIDA YUNON YOZUVINING O'RTA OSIYODAGI MAHALLIY TILLARGA TA'SIRI	22-27

IQTISODIYOT FANLARI

<i>Madartov Bahrom</i> PAXTA TO'QIMACHILIK KLASSTERLARIDA BOSHQARUV HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	28-31
<i>Mahsudov Muzaffar</i> DIGITAL TRANSFORMATION AS A CATALYST FOR SUSTAINABLE DEVELOPMENT IN INDUSTRIAL ENTERPRISES.....	32-35
<i>Axmedov Latayibxon</i> AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA O'Z KAPITALI HISOB TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI VA ISTIQBOLLARI	36-39
<i>G'afurova Dilshoda</i> OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA INNOVATSION FAOLIYATNI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	40-43

FALSAFA FANLARI

<i>Danabayev Xurshid</i> KAMBAG'ALLIK TUSHUNCHASINING IJTIMOY – FALSAFIY MOHIYATI.....	44-47
<i>Norliyev Rustam</i> INSON VA JAMIYAT O'RTASIDAGI MUVOZANAT: IJTIMOY-FALSAFIY TAHLIL	48-51

FILOLOGIYA FANLARI

<i>Abdubannoyeva Aziza</i> PSIXOLINGVISTIK TAHLIL METODLARI	52-54
<i>Abdumajitov Khurshid</i> THE PHENOMENON OF ANTONYM IN THE LEXICON OF SUMMER SPORTS IN ENGLISH AND UZBEK.....	55-57

<i>Asqaraliyeva Dilshoda</i> O'ZBEK XALQ MAQOLLARIDAN MUMTOZ ADABIYOTDA FOYDALANISH VA ULARNING TARBIYAVIY-AXLOQIY XUSUSIYATLARI	58-60
--	-------

<i>Исматова Наталья</i> ИСТОКИ ВОЗНИКНОВЕНИЯ ОБРАЗА ИСТОРИЧЕСКОЙ ЛИЧНОСТИ В УЗБЕКСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ	61-65
--	-------

YURIDIK FANLAR

<i>Холов Уткур</i> ҚОНУНИЙ КУЧГА КИРГАН СУД ҲУЖЖАТЛАРИНИ ЯНГИ ОЧИЛГАН ҲОЛАТЛАР БЎЙИЧА ҚАЙТА КЎРИШНИНГ АЙРИМ МАСАЛАЛАРИ	66-69
--	-------

<i>Otamirzayev Oybek</i> YER OSTI SUVLARI HOLATIDA HUQUQIY BIR NAZAR.....	70-73
--	-------

<i>Ergashova Shahrizoda</i> TRIPS VA WIPO SHARTNOMALARI DOIRASIDA RAQAMLI AKTIVLAR HUQUQIY MAQOMINING EVOLYUTSIYASI	74-76
---	-------

<i>Burxonov Shahzod</i> XALQARO MEHNAT TASHKILOTI VA UNING XALQARO MEHNAT STANDARTLARINI ISHLAB CHIQUISHDAGI O'RNI	77-80
--	-------

PEDAGOGIKA FANLARI

<i>Haqberdiyev Baxtiyor</i> O'QUV FAOLIYATI TAMOIYILLARIDA INTEGRATIV VA SINERGETIK YONDASHUVLAR	81-83
--	-------

<i>Исмагилова Мадинабону</i> НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЕ РЕШЕНИЯ ФОРМИРОВАНИЯ И РАЗВИТИЯ ОТЕЧЕСТВЕННОГО И ЗАРУБЕЖНОГО ИНТЕРЬЕРНОГО ДИЗАЙНА	84-86
--	-------

<i>Olimov Talat</i> O'QITUVCHILARDA MEDIASAVODXONLIK KO'NIKMALARINI TAKOMILLASHTIRISH USULLARI	87-89
--	-------

<i>Kamolova Umida</i> O'QUVCHILARDA ESTETIK DIDNI SHAKLLANTIRISHDA POETIK TAHLILLAR	90-92
--	-------

TIBBIYOT FANLARI

<i>Tursunova Laylo, Qilichov Sherbek</i> SURUNKALI BUYRAK KASALLIKLARI BOR BEMORLARDA ARTERIAL GIPERTENZIYANING RIVOJLANISH MEKANIZMI VA BUYRAKLARNING FUNKSIONAL FAOLIYATIGA TA'SIRI	93-102
--	--------

<i>Сафоева Саломат</i> КЛИНИЧЕСКАЯ ЭФФЕКТИВНОСТЬ КОМПЛЕКСНОГО ЛЕЧЕНИЯ ПАЦИЕНТОК С ПОЛИКИСТОЗОМ ЯИЧНИКОВ АССОЦИИРОВАННЫМ С ГИПОФУНКЦИЕЙ ЩИТОВИДНОЙ ЖЕЛЕЗЫ	103-106
---	---------

<i>Ergashev Bekzod</i> JINSIY XROMOSOMALARDA GENLARNING ANORMAL KO'RINISHI	107-112
---	---------

Jurayeva Gulasalxon

REVMATOID ARTRIT BILAN OG'RIGAN BEMORLARDA SURUNKALI BUYRAK KASALLIKNING
RIOVLANISH XAVF OMILLAR, KASALLIKNING TARQALGANLIGI VA BUYRAKLAR
ZARARLANISH VARIANTLAR 113-121

Ro'zumbetova Safura, Umarova Zamira

PODAGRIK NEFROPATIIYADA BUYRAKLARNING SHIKASTLANISH MEXANIZMI 122-127

FARMATSEVTIKA FANLARI

Shakirova Dinora, Xabibullayeva Shoir

DETERMINATION OF THE ANTIMICROBIAL EFFECT
OF DRIED RASPBERRY LEAVES 128-132

PSIXOLOGIYA FANLARI

Bekmuratova Xalima

ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI AKADEMIK LITSEY O'QUVCHILARIDA KASBIY MOTIVATSIYANI
SHAKLLANTIRISH: IJTIMOIIY MUHITNING TA'SIRI 133-136

YER OSTI SUVLARI HOLATIDA HUQUQIY BIR NAZAR

Otamirzayev Oybek Murodullo o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti
Ekologiya huquqi kafedrası o'qituvchisi
E-mail: otamirzaev2107@gmail.com
Tel: +998 94 062 66 83
Toshkent, O'zbekiston

Annotatsiya. "Suv — hayot manbai" degan ibora bejiz emas. Suv yer yuzida tiriklik asosidir. Suvlarni bir ko'rinishi sifatida yer osti suvlari muhofazasi va undan foydalanish bugunning dolzarb masalasi. Bu sohani huquqiy tartibga solish va fuqarolarni ekologik huquqiy madaniyatini oshirish birlamchi vazifalardandir.

Kalit so'zlar: UNEP, umumiy foydalanish, maxsus foydalanish, Suvmap, suv tejovchi texnologiyalar.

A LEGAL PERSPECTIVE ON THE GROUNDWATER SITUATION

Otamirzaev Oybek

Lecturer, Tashkent State University of Law,
Tashkent, Uzbekistan

Abstract. The expression "Water is the source of life" is not without reason. Water is the basis of life on earth. The protection and use of groundwater as a form of water is an urgent issue today. Legal regulation of this area and raising the environmental and legal culture of citizens are among the primary tasks.

Keywords: UNEP, general use, special use, Suvmap, water-saving technologies.

DOI: <https://doi.org/10.47390/spro/i-res-konf-2025-16>

Dunyo hamjamiyati oldida tabiat resurslaridan oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilishda qat'iy tartiblar belgilash va nazoratni kuchaytirish vazifalari asosiy o'rin tutmoqda. Tabiat resurslarini bir shakli sifatida yer osti suvlarini muhofazasi alohida o'rin tutadi. Chunki, mamlakatimizda aholini toza ichimlik suvi ta'minotida yer osti suvlarining ulushi 67%ini tashkil etishini o'zi ham bu sohani dolzarbligidan dalolat bermoqda[1]. Ichimlik suviga bo'lgan ehtiyojning ortayotganligi, yer osti suvlarining asosan yerlarni sug'orish va boshqa maqsadlarda olinishi natijasida yer osti suvlari sathining ko'p yillik o'rtacha sathdan pasayib ketish holatlari kuzatilmoqda. Bu esa jamoatchilik vakillari, fuqarolar va davlat organlarni tashvishga solmoqda. Bu sohani tartibga solish alohida e'tibor talab etmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Atrof muhit bo'yicha dasturi(UNEP) tomonidan berilgan ma'lumotlarga ko'ra, dunyoda ichimlikka yaroqli suvlarni 90 foizini yer osti suvlari tashkil etadi.

Yuqorida belgilanganidek, O'zbekiston Respublikasida ichimlik suvi iste'molining 67 foizi yer osti suvlaridan olinsa, boshqa davlatlarda bu statistika turlicha AQSHda 38 foizi yoki Afrika qit'asi davlatlarida 70-80 foizgachanini tashkil etadi[2; B.7-8.]. Barqaror rivojlanish maqsadlari(SDG) qatorida 6-maqsad sifatida *"Toza suvi va uni boshqaruvi hamda sanitariya"* deb nomlanib, unda suv bilan bog'liq qiyinchilikda yashayotgan dunyo ahosi soni 2,4 mlrdni tashkil etadi. Bu esa yer osti suvlari bilan bog'liqlik va uni muhimlik darajasini oshiradi[3].

Insoniyat yer osti suvlaridan foydalanishni "Bronza" davridan boshlab, foydalanishni boshlagan [4; B.1-2.]. Qadimgi Yunoniston sivilizatsiya markazlarida ham foydalanilganlik holatlarini aniqlangan.

Hozirgi vaqtda suv resurslarini boshqarish, undan foydalanish va muhofaza qilish sohasidagi ijtimoiy munosabatlar 10 ga yaqin qonun hujjatlari, shuningdek, 20 tadan ortiq qonunosti hujjatlari bilan tartibga solinadi[5].

Bugungi kunda yer osti suv resurslarini muhofaza qilish borasida davlat va jamoat nazorati kuchaytirilayotgani, ularning miqdoriy kamayib ketishi va ifloslanishining oldini olish bo'yicha choralar ko'rilayotgani ko'zga tashlanmoqda. Fuqarolar o'rtasida suvdan oqilona foydalanish madaniyatini oshirish borasida keng targ'ibot ishlari olib borilmoqda. Bizning vazifalar pirovardida aholini uzoq muddatda sifatli ichimlik suvi bilan ta'minlashdan iborat.

Milliy qonunchiligimizga ko'ra, yer osti suvlaridan foydalanish **umumiy va maxsus** usullar orqali amalga oshiriladi. Umumiy foydalanish shartlariga muvofiq, jismoniy shaxslar tomonidan chuqurligi 25 (yigirma besh) metr gacha bo'lgan quduqlardan sutkasiga 5 (besh) kub metr hajmdagi yer osti suvlaridan umumiy foydalanilganda maxsus foydalanish sifatida ruxsatnoma olish talab etilmaydi[6]. Bunda olingan suvdan fuqarolar o'z ehtiyojlari uchun foydalanishlari mumkin. Agarda sutkasiga ishlatiladigan miqdor 5 kub metrdan oshgan taqdirda, belgilangan tartibda ruxsatnoma olishlari lozim bo'ladi, yoki quduq chuqurligi 25 metrdan oshgan taqdirda ruxsatnoma asosida faoliyat yuritishi zarur. Ushbu holatda umumiy foydalanish sifatida talqin etiladi. Ushbu miqdor turli davlatlarda turlicha belgilangan. Masalan, **Qozog'iston Respublikasida** yer osti suvlaridan quduq orqali foydalanilganda, sutkasiga 50 kub metrdan oshmagan holda chuqurligi 20 metrdan ortiq bo'lmasligi keltirilgan bo'lsa, **Rossiya Federatsiyasida** sutkasiga 100 kub metr ko'p bo'lmagan, chuqurligi 5 metrdan ortiq bo'lmasligi belgilangan. **Hindiston poytaxti Dehli** shahrida esa bir oylik suv foydalanish miqdori etib, 20 (yigirma) kub metr yoki 20 ming litr etib belgilangan[7], [8; B.790-791.], [9; B.2268-2269.]. Bu belgilangan miqdorlar belgilashda albatta yer osti suvlariga salbiy ta'sir ko'rsatmaslik darajasi, uni zahiralarini muhofaza qilish, kelgusi avlod uchun asrash maqsadida cheklovlar belgilangan.

Bugungi kunda qishloq xo'jaligida zamonaviy suv tejovchi texnologiyalar, tomchilatib sug'orish amaliyotni joriy etish va bu yo'lda imtiyozli kreditlar ajratilmoqda, shuningdek suvsizlikka chidamli navlarni yaratish yo'lida qator ijobiy harakatlar amalga oshirilmoqda. Biroq, ba'zi holatlarda qishloq xo'jaligi ekinlarini o'z vaqtida suv bilan ta'minlay olmaslik holatlari va buni natijasida uzoq qilingan mehnat va xarajatlar tufayli yer egalari, yerdan foydalanuvchilari va yer ijarachilari og'ir vaziyatga tushib[10; B.120-121.], sohaga nisbatan ishonchsizlik ruhi shakllanishiga xizmat qilmoqda. Bizningcha, bu holatni oldini olishda Yer kodeksining 39-modda (Yer egasi, yerdan foydalanuvchi, ijarachi va yer uchastkasi mulkdorining huquqlari) sig'a 11-band sifatida **"yer uchastkasida suv qonunchiligi normalariga rioya etgan holda, suv olish inshootlarini barpo etish"** kiritilishi lozim. Bu ularni huquqlarini himoya qilishda va hosildorligini ko'zlangan natijaga etishishda muhim qadam bo'ladi.

Aholining barcha toifalarida suvga, ayniqsa, yer osti suvlariga bo'lgan talab ortib borayotganligi sababli, so'nggi yillarda yer osti suvlari hajmi keskin oshgan taqqoslash uchun 2014-yildan buyon 2022-yilda mamlakatimizda yer osti suvlarini qazib olish hajmi 30 foizga

oshdi va ayrim hududlarda bu ko'rsatkich ancha yuqoriligicha qolmoqda. Haqiqatda, qazib olingan yer osti suvlari miqdori ko'rsatilganidan bir oz ko'proq bo'lishi mumkin.

Buni hozircha aniqlash mumkin emas, chunki tegishli manzillardagi quduqlar va ular haqida ma'lumot berilmagan. **"Suvmap.uz"** saytida mamlakatimizdagi barcha suv obyektlari, ya'ni daryo, ko'llar, kanallar, suv omborlari, quduq va artezian quduqlari joylashuvi haqida ma'lumot berilgan. Biroq, bunga ma'lumotlar yetarli bo'lmaganligi sababli yer osti suv inshootlari haqida ma'lumotlar sezilarli darajada kam miqdorni tashkil etmoqda. *Ushbu saytni takomillashtirish va uni bu sohada ruxsatnomalar berishga vakolatli O'zbekiston Respublikasi Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi huzuridagi "Yer qa'ridan foydalanish markazi" davlat muassasasi bilan integratsiyalash muhim o'rin tutadi.*

Davlatlarda qonunchilik amal qilish ko'rsatkichlari, ularga to'liq rioya etish fuqarolarning huquqiy madaniyatda ko'rinadi. Atrof muhit borasidagi normativlarga rioya etish esa fuqarolarning ekologik huquqiy madaniyatida aks etadi. Fuqarolarda ekologik madaniyatni oshirish — bu ekologik ongni shakllantirish, tabiiy resurslarga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish, ekologik xavfsizlikni ta'minlash va atrof-muhitni asrashga bo'lgan mas'uliyatni rivojlantirish jarayonidir. Bugungi kunda atrof-muhit muammolari, iqlim o'zgarishlari va resurslarning kamayishi global miqyosda tobora jiddiylashib bormoqda, shuning uchun ekologik madaniyatni oshirish nafaqat davlatlar va xalqaro tashkilotlar, balki har bir fuqaro uchun ham ustuvor vazifaga aylanib bormoqda.

Ekologik madaniyatni oshirish har bir fuqaroning atrof-muhitga bo'lgan mas'uliyatli va ongli munosabatini shakllantirishni talab qiladi. Bu jarayonning samarali amalga oshirilishi uchun ta'lim, targ'ibot, qonunchilik va jamoatchilikning faol ishtiroki zarur. Ekologik madaniyatni oshirish nafaqat tabiatni muhofaza qilish, balki barqaror rivojlanishni ta'minlash, ijtimoiy adolatni mustahkamlash va iqtisodiy barqarorlikni saqlash uchun ham muhimdir. Har bir fuqaroni ekologik mas'uliyatga o'rgatish, ularni ekologik ongli shaxslar sifatida tarbiyalash muhim vazifa hisoblanadi.

Yer osti suvlarining ahamiyati nafaqat ichimlik suvi ta'minoti, balki sanoat va qishloq xo'jaligi uchun ham muhim resurs hisoblanadi. Ko'plab hududlar uchun yer osti suvlariga bo'lgan talab ortib borayotganligi sababli, ularning muhofazasi va barqaror foydalanilishi dolzarb masalaga aylangan. Suv taqsimoti va resurslarni boshqarishning samaradorligi ekologik muvozanatni saqlashda hal qiluvchi omil bo'ladi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik palatasining 2025-yil 24-yanvardagi majlisidan.
2. UNEP (2008) Vital water graphics – an overview of the state of the world's fresh and marine waters, 2nd edn. UNEP, Nairobi. 88 pages.
3. <https://sdgs.un.org/goals/goal6>.
4. Gorokhovich Y, Mays LW, Ullmann L (2011) A survey of ancient minoan water technologies, water science and technology: water supply 114(4):388.
5. <https://parliament.gov.uz/news/islohotlarning-huquqiy-asoslarini-mustahkamlash-asosiy-vazifa>.

6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Yer osti suvlaridan foydalanishga oid ruxsat etuvchi hujjatlarni berish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 9-sonli qarori.
7. Absametov, Malis, et al. "Assessment of the groundwater for household and drinking purposes in central Kazakhstan." *Groundwater for Sustainable Development* 21 (2023): 100907.
8. Golovina, Ekaterina I., and Anastasia V. Grebneva. "Management of groundwater resources in transboundary territories (on the example of the Russian Federation and the Republic of Estonia)." *Записки Горного института* 252 (2021): 788-800.
9. Rai, Suresh Chand. "Water management for a megacity: national capital territory of Delhi." *Water resources management* 25 (2011): 2267-2278.
10. Rosegrant, Mark W., Claudia Ringler, and Tingju Zhu. "Water for agriculture: maintaining food security under growing scarcity." *Annual review of Environment and resources* 34.1 (2009): 205.